

## “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI SHE’RIY PARCHALAR BADIYATI

*Ismoilova U.M.*

*ADU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi, magistr*

*E-mail: [ashurovaumida199@gmail.com](mailto:ashurovaumida199@gmail.com)*

### ANNOTATSIYA

Tezida “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan she’riy parchalarning badiiyati, ularda foydalanilgan badiiy san’atlar va ushbu she’riy parchalarning asar mazmuniga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy san’atlar, tazod, tashbeh, talmeh, bayt, payg‘ambarlar hayoti, badiiy mahorat.

### ABSTRACT

The thesis talks about the artistry of the poetic fragments presented in the work “Tarihi anbiyo va hukamo”, the artistic arts used in them and the effect of these poetic fragments on the content of the work.

**Keywords:** fine arts, tazad, tashbeh, talmeh, verse, life of prophets, literary skill.

Alisher Navoiy deganda hayolimizda, asosan, u zotning boy lirik merosi, muhtasham “Xamsa”si, badiiy qimmatiy-yu g‘oyaviy mazmuni bir-biridan go‘zal bo‘lgan g‘azallari, pand-nasihatga boy qit‘a-yu ruboiylari gavdalanadi. Ammo, shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, Alisher Navoiy qomusiy olim sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tazkirachilik, xalqlar va dinlar tarixi haqida ham e‘tiborga molik asarlarni yozib qoldirgan. Bu asarlar ilmiy, ijtimoiy yoki didaktik ruhda yozilganiga qaramay, ularda shoir nafasi sezilib turadi. So‘z yuritadiganimiz – “Tarixi anbiyo va hukamo” asari haqida ham ayni fikrni bildirishimiz mumkin.

Nomidan ma’lum bo‘ladiki, asar anbiyolar, ya’ni payg‘ambarlar va hakimlar hayoti haqidagi qissalarni o‘z ichiga oladi, she’riy parchalarning asosiy qismi esa har bir qissaning nihoyasida o‘sha qissadan olingan kichik xulosa sifatida keltirilgan. Shuningdek, she’riy parchaning qissa matni ichida keltirilgan holatlari ham mavjud va bu parchalarning aksariyatiga nom berilmagan. Ulardan farqli ravishda qissalar so‘nggida berilgan she’riy parchalarga bayt, ruboiy, she’r, nazm, masnaviy kabi nomlar berilgan. Olti qatorli iborat bo‘lgan lirik parchaga masnaviy deb nom berilgan. To‘rt qatorli parchalarning o‘n yettitasiga ruboiy nomi berilgan va ularning barchasi taronai ruboiy shaklida yozilgan. Ikki qatorli va to‘rt qatorli yigirma oltita parcha esa she’r nomi ostida keltirilgan. Shuningdek, asarda bir dona nazm va bir dona bayt nomli she’riy parcha mavjud.

She'riy parchalarga turli xil nom berilganiga qaramasdan ularning barchasi so'z yuritilgan qissaning xulosasi yoki undan olingan ibrat mazmunida yozilgan. Misol uchun,

Ming yil dog'i sursa edi davronni Anush,  
Ham aylagusi edi ajal jomini no'sh.<sup>1</sup>

Keltirilgan parchada Anushning ham boshqa podshohlar singari bir kun kelib vafot etishini ta'kidlash orqali o'limning haq ekanligi xulosalanayotgan bo'lsa, quyida keltiradigan Yaratganga sheriklikni da'vo qiladigan odamning taqdiri ayanchli yakun topishi haqidagi parchamiz o'quvchi uchun ibrat mazmunida yozilgan:

Dushmani xoksor johilkim,  
Haqqa da'voyi ishtirok etti.  
Ko'rki, Haq g'ayratin ne nav' oni,  
Sarzanishlar bila halok etti.<sup>2</sup>

Berilgan lirik parchalar g'oyat mazmundor ekanligi bilan bir qatorda badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgan. Asar mumtoz she'riyatda faol tilga olinadigan tarixiy shaxslar hayoti haqida bo'lganligi vajhidan she'riy parchalarda talmeh badiiy san'atini tez-tez uchratishimiz mumkin:

Gar Ibrohimu Ismoil bo'lsun,  
Ki, Haq amrin qabul etmak keraktur.  
Bu foni dayrda chun qildi manzil,  
Turub bir necha kun ketmak keraktur.<sup>3</sup>

Ma'lumki, Haq taolo Ibrohim alayhissalomga iymonini sinovdan o'tkazish uchun o'g'li Ismoil alayhissalomni qurbonlik qilishni buyuradi. Ibrohim alayhissalom ham, u zotning o'g'illari ham Yaratganni amriga itoat etishadi va Alloh taolo ularning bu taqvosini taqdirlab, Ismoil alayhissalomning o'rniga qurbon qilish uchun jannatdan qo'y tushiradi. Muallif ushbu holatni o'quvchiga ibrat sifatida keltirib, Haqqa itoatda ibrat bo'luvchi Ibrohim-u Ismoil alayhimussalomlardek insonlar ham bu dunyoda foniylilik maqomida yashaganlarini talmeh san'ati vositasida bayon etadi.

Muallif asardagi she'riy parchalarda tazod she'riy san'atidan ham ustalik bilan foydalangan. Fikrimizning dalili o'laroq quyidagi misralarni keltirishimiz mumkin:

Yigitlig'da yig' ilmning mahzani,  
Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani.<sup>4</sup>

Bilamizki, inson yoshlik chog'ida aqli butun, jismi tetik bo'ladi, o'rgangan ilmi toshga o'yilgan naqsh misoli xotiriga muhrlanadi. Qarilik esa o'zi bilan zaiflikni keltiradi, odamning darmonini quritadi. Yuqoridagi misralar orqali shoir o'quvchini

<sup>1</sup>Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.101

<sup>2</sup>Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.114

<sup>3</sup>Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.117

<sup>4</sup>Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.192

yoshlik chog'ida ilm xazinalarini yig'ishga, qarigan chog'ida o'sha xazinani rohat-farog'atda xarjlashga chaqiradi va bu fikrni yoshlik – qarilik, yig'moq – xarj qilmoq so'zlarini bir-biriga qarshi qo'yish orqali tazod san'ati vositasida ifodalaydi.

Shuningdek, qissada keltirilgan ma'lumotlarning she'riy parchada tashbeh san'atini hosil qilishdagi ishtiroki ham tahsinga sazovordir:

Olamni Sulaymong'a haq etmish ma'mur,  
Hukmi soldi jinu bashar xaylig'a sho'r.  
Oxir chu ajal anga maqom ayladi go'r,  
Tufroq ichida qildi vatan o'ylaki mo'r.<sup>5</sup>

Shon-shavkat va boyluk timsoli bo'lgan Sulaymon alayhissalomning chumolilar shohi bilan qilgan suhbatini keltirilgan qissa yakunida ibrat mazmunidagi ruboiyni tashbeh san'ati bilan bezashga xizmat qilgan.

Asarda yuqoridagi keltirilganlardan tashqari ishtiyoq, tamsil, istiora, radd us-sadr ilal-ibtido, radd ul-xashv ilal-ajuz singari badiiy san'atlar ishtirok etgan she'riy parchalar ham talaygina.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nasriy asarlarda she'riy parchalarni keltirish orqali o'quvchida asarga nisbatan yanada ko'proq qiziqish uyg'otadi. Ushbu sh'erni qo'llanilgan badiiy san'atlar esa parchaning badiiy saviyasini orttirish, uni oddiy she'r darajasidan san'at darjasiga ko'tarib, o'quvchiga estetik zavq bag'ishlash va shu orqali asarning ta'sirini oshirishga xizmat qiladi hamda ijodkorning badiiy mahorati ko'zgusi vazifasini bajaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XVI жилд. “Тарихи анбиё ва ҳукамо”. Фан. Нашрга тайёрловчи Латиф Халилов – Т.:2000.
2. Ёқубжон Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. Зарқалам. – Т.:2006.

<sup>5</sup> Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 16-жилд. Т., 2000. Б. 165